

**MAXSUS BO'LINMALAR SHAXSIY TARKIBINING JANGOVOR  
VAZIYATLARDA STRESSLI XOLATLARNI OLDINI OLISHNING  
O'ZIGA XOS JIXATLARI**

*Arziyev G'.I. - podpolkovnik*

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti*

*Qurollanish va otish kafedrasida boshlig'i o'rinbosari-sikl boshlig'i, dotsent.*

**Анотация:** ushbu maqolada bugungi kunda dunyoda kechayotgan keskin harbiy-siyosiy holatlarni bartaraf etish jarayonida maxsus bo'linmalar harbiy xizmatchilarning ongi va psixologiyasiga kuchli ta'sirlar natijasida og'ir stressli holatlarga tushish va bu jarayonlarni yengib o'tishlari haqida so'z yuritilgan.

**Анотация:** В данной статье рассмотрены вопросы морально-психологической и боевой подготовки личного состава специальных подразделений при подготовке к выполнению боевых задач.

**Калит сўзлар:** qurol, harbiy-siyosiy, psixologik, jangovar, maxsus, harakat, bo'linma, stress.

**Ключевые слова:** оружия, военно-политической, психологический, боевой, специальный, действия, подразделение, стресс.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi davlatlari harbiy-siyosiy rahbariyati qo'shinlar tarkibining jismoniy va ruhiy holatini saqlash milliy xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri deb hisoblanmoqda.

Zamonaviy qurolli to'qnashuvlarda jangning tabiati va psixologik omillari bilan har tomonlama tanishish, dushmani, shu jumladan, uning axloqiy va psixologik qiyofasini o'rganish muhim o'rin tutmoqda.

Har bir jangchiga o'zining jangovar faolligi va barqarorligining asosini tashkil etadigan fazilatlarini mustaqil rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, birinchi navbatda, psixologik muammolar bo'yicha zarur minimal harbiy-psixologik bilimlarga ega bo'lish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavjud ma'lumotlar tahliliga ko'ra, jahonda va mintaqadagi oqibati nima bilan tugashini oldindan prognoz qilib bo'lmaydigan harbiy-siyosiy jarayonlar kechayotgan bir davrda harbiy to'qnashuv va keskinlashuv holatlarida hal qiluvchi kuch sifatida asosiy e'tibor maxsus bo'linmalarga qaratilmoqda.

Bugungi kunda olib borilayotgan qurolli to'qnashuvlarda, xususan, yetakchi davlatlar maxsus bo'linmalarida shaxsiy tarkibning jangovar va psixologik tayyorgarligini yanada oshirish, amaliy mashg'ulotlarni murakkab jangovar sharoitlar va ekstremal vaziyatlarga yaqinlashtirilgan holda o'tkazish, jang maydonida yuzaga

kelishi mumkin bo'lgan oddiydan murakkabgacha bo'lgan sharoitlarda shaxsiy tarkibning psixologik barqaror holatini ta'minlashga qaratilmoqda.

Jangovar harakatlar davomida asosiy e'tibor bo'linma (rota, vzvod, otryad, otdeleniya) komandirlari, ularning o'rinbosarlari hamda yo'riqchi serjantlar tomonidan jang maydonlari va bevosita vazifa bajarilayotgan hududlarda jangovar to'qnashuvlar oralig'ida harbiy xizmatchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash va ruhiy barqarorlikni ushlab turishga qaratilmoqda.

Ushbu jarayonda quyidagilarga asosiy e'tibor:

jangovar va o'quv-jangovar xizmat jarayonida psixologik barqarorlikni ta'minlashga;

guruhni jangovar holatlarda turli murakkab vaziyatlardan talofatsiz olib chiqish va nostandart sharoitlarda qarorlar qabul qila olish ko'nikmalarini rivojlantirishga; jangovar to'qnashuvlar oralig'ida-jangovar xizmat faoliyatidan so'ng axloqiy-ruhiy holati beqarorligi aniqlangan harbiy xizmatchilar bilan birinchi imkon tug'ilishi bilan reabilitatsiya tadbirlarini amalga oshirishga qaratilmoqda.

Ushbu jarayon quyidagi **shakllar** orqali amalga oshirilmoqda:

jangovar vazifalarni bajarish davrida jamoani mohirlik bilan boshqarish, ruhiy barqarorlikni ushlab turish;

vazifalarni to'g'ri taqsimlash, jamoada ruhiy-asab beqarorlik belgilariga ega harbiy xizmatchilarni, o'ziga ishonchi tushib ketganlarni ajrata olish;

jangovar vazifani bajarishdan so'ng guruhda va harbiy xizmatchilarda ruhiy yuklamalarni birlamchi tarzda yechishga qaratilgan ishlarni tashkillashtirish.

Maxsus bo'linmalarida harbiy xizmatchilarni jangovar-psixologik barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida kelgusida harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va murakkab vaziyatlarda bardoshlilikini oshirish hamda jangovar ruhini mustahkamlash tizimini yanada takomillashtirishga erishiladi.

Shuningdek, bugungi kunda dunyoda kechayayotgan keskin harbiy-siyosiy holatlarni bartaraf etish jarayonida maxsus bo'linmalar harbiy xizmatchilarning ongi va psixologiyasiga kuchli ta'sirlar natijasida og'ir stressli holatlarga tushish va bu jarayonlarni yengib o'tishlari bir muncha qiyinchiliklar bilan kechmoqda.

Ushbu stressli holatlarga tushmaslik va bunday holatlarni oson yengib o'tishga o'rgatish maqsadida qo'shinlarda mashg'ulotlarni real jangovar vaziyatga yaqinlashtirilgan holda tashkillashtirish va o'tkazish jarayonida zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish talab etiladi va foydalanishmoqda.

Hozirda yetakchi xorijiy davlatlar armiyalarining otish tayyorgarligi mashg'ulotlari jarayonida qo'llanilib kelinayotgan qurollarga o'rnatiladigan "**Lazertag**" moslamalari yordamida o'quv jangovar mashqlarni real jangovar vaziyatga "**Lazertag**" moslamani maxsus bo'linmalari jangovar tayrgarlik

jarayonlariga keng joriy etish maqsadida ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazildi va amalga oshirilmoqda.

Yetakchi davlatlarda maxsus bo'linmalar bilan o'tkazilgan tadqiqot jarayoni shuni ko'rsatdiki, shaxsiy tarkibda **energodefitsit, depressiya, adaptatsiya, ensefalopatiya patologiya, introversiya, stress, tremor, yurak urushi va qon bosimining** o'zgarish holatlari o'rganilgan.

Natijasiga ko'ra shaxsiy tarkib bilan "**Lazertag**" moslamalari yordamida o'quv-jangovar mashqlarni **real jangovar vaziyatga yaqinlashtirilgan** holda bajarish jarayonida bir qancha shaxsiy jangovar xususiyatlariga salbiy ta'siri aniqlangan.

**Jumladan: qon bosimi** – arterial qon bosimining ko'rsatgichi birinchi bosqich yakuniga **120/80** ko'rsatgan bo'lgan bo'lsa, ikkinchi bosqich yakuniga ko'ra **125%** ga ko'tarilib **130/90** tashkil etgan;

**yurak urushi** – birinchi bosqich yakuniga ko'ra o'rtacha daqiqasiga **70** marotaba urgan bo'lsa, ikkinchi bosqich yakuniga ko'ra **85** marotabaga oshgan;

**stress holati** - birinchi bosqich yakuniga ko'ra o'rtacha **32%** tashkil etgan bo'lsa ikkinchi bosqich yakuniga ko'ra **42%** ga oshgan;

**ensefalopatiya (bosh miya tormozlanishi)** - bunda bosh miya tormozlanishi birinchi bosqich yakuniga ko'ra o'rtacha **20%** tashkil etgan bo'lsa ikkinchi bosqich yakuniga ko'ra **90%** ga ko'tarilgan;

**introversiya (kirishuvchanlik)** – shaxsiy tarkibning kirishuvchanligi birinchi bosqich yakuniga ko'ra o'rtacha **46%** tashkil etgan bo'lsa ikkinchi bosqich yakuniga ko'ra **59,7%** ga oshgan;


**tremor (titroq, qaltiroq)** – shaxsiy tarkibda birinchi bosqich yakuniga ko'ra titroq holati diyarli kuzatilmadi, terlash va tanasidagi boshqa holat o'zgarishlari aniqlanmadi. Ikkinchi bosqich yakuniga ko'ra esa, har ikkala tomonlarda tanasida titroq, terlash hamda tana haroratining ko'tarilishi kuzatilgan;

**adaptatsiya** – birinchi bosqich yakuniga ko'ra o'rtacha shaxsiy tarkibning real jangovar vaziyatga **41%** moslashgan bo'lsa, ikkinchi bosqich yakuniga ko'ra **55%** moslasha olgan;

**depressiya** – shaxsiy tarkibning birinchi bosqich yakuniga ko'ra depressiya holatiga tushishi **33%** ni tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi bosqich yakuniga ko'ra **45%** ga ko'tarilgan;

**energodefitsit** – shaxsiy tarkibning birinchi bosqich yakuniga ko'ra bosh miyada kislorod tanqisligi **17%** tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi bosqich yakuniga ko'ra **7%** tashkil qilgan.

*“Lazertag” tizimini shaxsiy tarkibning jangovar xususiyatlariga ta’siri*



Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, shaxsiy tarkibning “Lazertag” moslamasini qo‘llagan holda o‘tkazilgan tadqiqotlarda real jangovar vaziyatga kirishganliklari va bu jarayonlarda haqiqiy jang maydonida ekanliklarini his etishlari, sog‘lom qo‘rquvlar va o‘limdan qochish harakatlari oqibatida taktik harakatlarida moslik va ketma-ketliklar aniq bajarilganliklari kuzatildi.

Shu bilan birga, “Lazertag” moslamasi yuqori texnologik tizim hisoblanib, real vaqt va makonda jangovar harakatlarni mashq (imitatsiya) qilish imkonini beradi.

Xozirgi kunda mazkur anjom-aslahalar bilan rivojlangan yetakchi davlatlarning maxsus bo‘linmalari jangovar tayyorgarlik tizimiga o‘q-dori sarfisiz harbiy xizmatchilarni real jang maydonida qurol bilan yakka va guruh tarkibida o‘zini tutish, jonli shartli dushmanga nisbatan qurol qo‘llash ko‘nikmalarini mustaxkamlash, jangovar ruhni ko‘tarish hamda jang maydonida yashovchanlikka o‘rgatib kelmoqda va bu albatta o‘z samarasini bermoqda deb xabar beradi internet sahifalarida.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Подготовка снайпера. Сайт о снайперском оружии, спайпинге и снайперах.
2. Материал из Википедии — свободной энциклопедии.
3. Подготовка снайперов австралийской армии. (Т. Коул, журнал «Солдат удачи», 12/1994).
4. Интернет. Подготовка австралийских снайперов.
5. Снайперская стрельба, М. Секулич.